

## INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

*Umarova Nargiza*

Filologiya fakulteti, Tilshunoslik kafedrası professori

Farg'ona Davlat Universiteti

*Shahnoza Normurodova Shuxrat qizi*

Lingvistika: Ingliz tili mutaxassisligi magistranti

Farg'ona Davlat Universiteti

[shakhnozanormurodova9298@gmail.com](mailto:shakhnozanormurodova9298@gmail.com)

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** OAV, axborot, mediamatn, medialingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, AKT, media psixologiyasi, leksik so'z, leksik birliklar, gazeta uslubi, radio, ijtimoiy saytlar.

### Annotatsiya

*Ushbu maqolada ommaviy axborot vositalarining ingliz va o'zbek tillarida o'rganilishi va medialingvistika atamasiga qisqacha to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, har ikki tilda namunalar keltirilib, leksik jihatdan izohlanadi.*

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

### KIRISH

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda ommaviy axborot vositalarining barcha ko'rinishlari insoniyatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib bormoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Gapimizning tasdig'ini ushbu faktlardan ham bilib olishimiz mumkin.

Axborot olish va uni yetkazish makonining muhim bo'g'iniga aylangan Internet foydalanuvchilarining soni bugungi kunda 2 milliarddan ortiq kishini tashkil qilmoqda. Malu'motlarga qaraganda, kun davomida inson deyarli 40% dan ortiq vaqtini ommaviy axborot vositalariga sarflar ekan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Medialingvistika” atamasi fanlar chorrahasida paydo bo'ladigan yangi o'quv fanlarini – sotsiolingvistika, etnolingvistika, media psixologiyasi, media iqtisodiyoti va boshqalarni nomlash uchun ishlatiladigan bir qator leksik birliklar bilan o'xshashlikyo'li bilan shakllangan. Bu atama nisbatan

yaqinda, 2000 yilda paydo bo'lgan. Birinchi marta T.G.Dobrosklonskayaning "Media lingvistikasi nazariyasi va usullari" doktorlik dissertatsiyasida qo'llanilgan. Biroz oldinroq uning ingliz tilidagi "media lingvistika" versiyasi paydo bo'lgan, buni Britaniya tadqiqotchilari asarlarida topish mumkin.

"Ommaviy axborot vositalari" (ommaviy axborot vositalari) va "tilshunoslik"ni o'zida mujassam etgan atamaning o'zidan kelib chiqqan holda, ushbu yangi fanning predmeti tilning ommaviy kommunikatsiya sohasidagi faoliyatini o'rganish hisoblanadi. Ya'ni, medialingvistika nutqdan foydalanishning ma'lum bir sohasini - ommaviy axborot vositalarining tilini har tomonlama har tomonlama o'rganish bilan shug'ullanadi. Medialingvistikani tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida ta'kidlashning qonuniyligi ommaviy axborot vositalarining jamiyat va shaxs uchun o'ynaydigan ulkan roli bilan bog'liq. Zamonaviy nutq amaliyotlarining katta qismi ommaviy kommunikatsiya sohasida qo'llaniladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) uzluksiz takomillashtirish global axborot makonida turli milliy tillarda tarqatilayotgan matnlar umumiy hajmining barqaror o'sishiga olib keladi. Shu bilan birga, media lingvistika predmeti nutqdan foydalanishning ma'lum bir sohasiga aylangan yagona fan emas: xuddi shu tamoyil lingvistik tadqiqotning boshqa yangi sohasi - siyosiy tilshunoslikni mustaqil fanga ajratish uchun ishlatiladi. uni o'rganish tilning siyosiy aloqalar sohasidagi faoliyatidir.

#### NATIJALAR

Ommaviy axborot vositalarini leksik jihatdan tahlil qilarkanmiz, birinchidan leksik so'zini tushunishimiz zarur. Leksik so'z (leksema)- leksik mazmunli so'z, tilshunoslikning leksikologiya bo'limida o'rganiladi. Leksik ma'no deganda so'z ifoda etadigan tushuncha, hissiy-ta'siriy bo'yoq va uslubiy belgilar yig'indisi tushuniladi. Demak, tushuncha, hissiy-ta'siriy bo'yoq, uslubiy belgi leksik ma'no komponentlari deyiladi.

Tilning eng muhim birligi so'zlar hisoblansa, ularni uchratishimiz mumkin bo'lgan lug'atlardagi har bir birligi, belgilari so'zlarning o'ziga xos ma'noviy jihatlaridir. Masalan, ingliz tilida 14-asrlarda qo'llanila boshlangan "**button**" so'zi ot va fe'l so'z turkumiga oid bo'lib "tugma (kiyim yoki biror texnika)" va "tugma tikib olmoq, to'g'nab olmoq" ma'nosiga ega. Biroq ushbu so'z OAVning jurnalistika sohasida "**kichkina veb reklama**" ma'nosini bildiradi. "Button" so'zi "**on the button**" birikmasi shaklida "**exactly- aniq**" ma'nosida ham kela oladi.

"PEOPLE HERE ARE LIKE CAPTIVE MONKEYS" (THE NEW YORK TIMES, page A6) – "aholi bu yerda bandi qilingan maymunlar kabidir" ushbu jumlada muallif tomonidan qo'llanilgan "captive"ni tahlillaymiz. Captive – bandi, bandi qilib saqlangan, ot va sifat so'z turkumiga oid so'z, 14-15-asrlardan boshlab qo'llanilib, lotin tilidan kirib kelgan so'z. o'xshatish unsuridan foydalanilgan bo'lib, eskirgan so'z hisoblanmaydi va bir necha nutq uslublarida qo'llaniladi.

#### Captive

Sinonimlari	Antonimlari
Apprehended, captured, confined, imprisoned, jailed, caught, arrested	free

Ayrim so'zlarning lug'aviy ma'nolari, kontekstdagidan farq qilishi mumkin. Namuna uchun, POWER so'zini olsak. "A filing discloses discussions about keeping the former president in power." (Ariza sobiq prizidentni hokimiyatda saqlab qolish haqidagi munozaralarni ochib berdi.) ushbu

parchada “power” soʻzi hokimiyat maʼnosida kelyapti, aslida ilk lugʻaviy maʼnosi kuch, qurb, qodirlik, quvvat va h.k.

Har bir davr gazeta leksikasi ijtimoiy-siyosiy yoki boshqa sohalaridagi oʻgarishlar tufayli oʻzgarib boradi. Bunday leksikalar oʻziga xos soʻz, ibora va izohlarni shakllanishiga olib keladi. Masalan:

- ▣ 2020-2021- yillarda: “koronavirus-tojli virus”, “COVID-19”, “niqob”, “uyda qoling”, “narx-navo”, “emlash-vaksina”, “karantin- izolyatsiya”, “30 kishilik toʻy”, “uchinchi renesans”, “raqamlashtirish”, “masofaviy dars teledasturlari”, “daromad”, “yangilanayotgan oʻzbekiston”, “dori-darmon”, “ochiq muloqot”, “deputalar”, “modernizatsiya”, “masofaviy taʼlim”, “onlayn muloqot” va boshqa leksikalar shakllangan.
- ▣ 2022- yilda: “taraqqiyot strategiyasi”, “yangi Oʻzbekiston”, “harakatlar strategiyasi”, “ijtimoiy sugʻurta”, “ijtimoiy sugʻurta jamgʻarmasi”, “temir daftar”, “yoshlar daftari”, “ayollar daftari”, “ijtimoiy himoya yagona reestri”, “omikron shrammi”, “mehr dafatri”, “bozor iqtisodiyotining alifbosi”, “fraksiya”, “starategik islohotlat” va h.k.

Radiodan aytilgan soʻz katta taʼsir kuchiga ega, chunki u ovoqli, demak, uni talaffuz qilgan paytda soʻzlovchi unga oʻz his-tuygʻularining oshkora ifodasini topgan fikr-oʻylarning biror-bir qismini jo etgan boʻladi. Estoniyalik tadqiqotchi I. Trikkel aytganidek, “jonli soʻz radioda eng murakkab ifoda vositasi, chunki unda fikr va harakatlar, his-tuygʻular, xarakter va visual borliq oʻz aksini topgan boʻlishi kerak”.

Radioeshittirishlarda siz boshqa OAV turlarida boʻlgani kabi maqol, hikmatli soʻz va naqlarga ham koʻzingiz tushishi mumkin. Masalan: “vaqt-oliy hakam”, “ona bu dunyoda, hatto oʻz uyida ham mehmon ekan”, “ummon oldida tursang ham bir tomchi suvni isrof qilma”, “suv-hayot manbai” va h.k.

Fargʻona FM (90,8) radiosini tinglash davomida ushbu parcha diqqatimni tortdi: “tushlikdan soʻng ayyor tomirlar ishga tushadi”. “Ayyor tomirlar” kabi oʻxshatish unsuri tinglovchini oʻziga tortib, kulgusini keltiradi. Ushbu oʻrinda suxandon nutqida oʻz maʼnosida “dam olishi hisi” deb aytish mumkin edi, biroq eshittirish yanada qiziqarli boʻlishi maqsad qilingan. Yoki, “yuzingiz yorugʻ boʻlsin” jumlasini ham maʼno koʻichini hosil qilmoqda.

Radioeshittirishlarda siz motivatsion ruhdagi parchalarni eshittirishingiz mumkin, masalan: “Soatingizga qarang va ishlashda, odimlashda davom eting”.

## MUHOKAMA

Eng koʻp qoʻllaniladigan global til – ingliz tili qaysi millat vakili foydalanishidan, oʻrganishidan qatʼi nazar, oʻzining soʻz boyligi bilan raqamli texnologiya asrida oʻz taʼsirini bermasdan qolmayapti. Siz-u biz OAVda oʻqiyotgan, tinglayotgan yoki tomosha qilayotgan soʻzlarimiz nafaqat ingliz tilidagi, balki boshqa tillardagilar ham bizning lugʻatlarimizga kirib kelmoqda va biz kundalik turmushimizda hech ikkilanmasdan baʼzida hattoki xatolarsiz ularni talaffuz qilmoqdamiz. Til bir joyda, bir xilda yoki bir yoʻsinda qotib turmaydi, u, albatta, boshqa tillardan kirib kelgan yangi soʻzlar bilan boyib boradi.

Ijtimoiy saytlar axborot olish va uzatishning eng keng tarqalgan shakliga aylanib, kishilar hayotining ajralmas qismidir. Ijtimoiy saytlar insonlar uchun olis masofalarni yaqinlashtiruvchi, dunyoning har bir nuqtasida sodir boʻlayotgan voqea-hodisalarni bevosita tomoshabiniga

aylantirib, bir necha turli amallar - telefon qo'ng'iroqlarini ham audio, ham vizual shaklda, rasmlarni har xil fonlarda, emojilar, guruh chatlari, forumlar va xabarlarini tezkor ommaga yetkazib beradigan ulkan yordamchiga aylanib qolmoqda. Siz telefoningiz orqali biror ijtimoiy saytda qandaydir amalni bajarib turganingizda minglab boshqalar esa boshqa funktsiyalardan foydalana oladigan to'r sifatida rol o'ynamoqda desak xato bo'lmaydi.

## XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, biz OAV so'zlarini leksik tahlili orqali yangi lug'atlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratish bilan birga tarjima nazariyasi, leksikologiya darslarida amaliy tarzda foydalanish mumkin. Ingliz tilini o'qitishda va o'rganishda, bundan tashqari ishlab chiqarish jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan OAVga oid yangi so'zlarini ma'nolarini bilish yoki ularni muqobilini o'z tilimizda shakllantirish, kundalik turmushda qo'llash, tushunarlikni oshirishga yordam bermay qolmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.G. Dobrosklonskaya "Theory and Methods of Media Linguistics" doctoral dissertation Moscow 2000y
2. Chudinov A.P. Political linguistics. - M.: Flinta-Nauka, 2006
3. S.X. SHOMAKSUDOVA, M.I. ISRAIL :OAV da yozma nutq. Nutq va munozara" o'quv qo'llanma. –T "IQTISOD-MOLIYA", 2018.
4. Аристова В.М. Англо-русские языковые контакты (англицизмы в русском языке) Л. , 1978. 152 с.
5. Добросклонская. Т. Г. Вопросы изучения медиатекстов. Опыт исследования современной английской медиаречи. – М., 2005. – 288 с.
6. Trikkel I. Некоторые вопросы теории репортажа//Радиорепортаж. – М., 1967. – С .11.

### i. Vebsaytlar:

7. [www.google.com](http://www.google.com)
8. [www.wicipediya.com](http://www.wicipediya.com)
9. [www.articlekz.com](http://www.articlekz.com)
10. [www.edutainmentventures.com](http://www.edutainmentventures.com)